

# Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

1  
2024



- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti

- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati



74-91 xalqaro daraja  
ISSN: 2992-8982



# **Yashil** IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Bosh muharrir:**

**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**

**Bosh muharrir o'rinosari:**

**Karimov Norboy G'aniyevich**

*Elektron nashr. 788 sahifa.*

*E'lom qilishga 2024-yil 7-fevralda ruxsat etildi.*

**Muharrir:**

**Qurbanov Sherzod Ismatillayevich**

**Tahrir hay'ati:**

**Salimov Oqil Umrzoqovich**, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

**Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich**, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

**Rae Kwon Chung**, Janubiy Korea, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati

**Osman Mesten**, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyatni rahbari

**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**, t.f.d., prof., O'zR Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vaziri

**Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich**, i.f.d., O'zR Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinosari

**Axmedov Durbek Kudratillayevich**, i.f.d., prof., O'zR Majlis qonunchilik palatasi deputati

**Xudoqulov Sadirdin Karimovich**, i.f.d., prof., TDIU YoMMMB birinchi prorektori

**Abduraxanova Gulnora Kalandarovna**, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlari va innovatsiyalar bo'yicha prorektori

**Kalonov Muxiddin Baxritdinovich**, i.f.d., prof., "O'IRIAM" ilmiy tadqiqot markazi direktori – prorektor

**Yuldashev Mutallib Ibragimovich**, i.f.d., TMI professori

**Samadov Asqarjon Nishonovich**, i.f.n., TDIU professori

**Slizovskiy Dimitriy Yegorovich**, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori

**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich**, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori

**Aliyev Bekdavlat Aliyevich**, f.f.d., TDIU professori

**Axmedov Ikrom Akramovich**, i.f.d. TDIU professori

**Po'latov Baxtiyor Alimovich**, t.f.d., profesor

**Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich**, i.f.d., TDIU professori

**Isakov Janabay Yakubbayevich**, i.f.d., TDIU professori

**Musyeva Shoira Azimovna**, SamDu IS instituti professori

**Axmedov Javohir Jamolovich**, i.f.f.d., "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinosari

**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li**, t.f.f.d., TAQU katta o'qituvchisi

**Xalikov Suyun Ravshanovich**, i. f. n., TDAU dotsenti

**Kamilova Iroda Xusniddinovna**, i.f.f.d., TDIU dotsenti

**Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi**, i.f.f.d., TDIU dotsenti

**Rustamov Ilhomiddin**, f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti

**Fayziyev Oybek Raximovich**, i.f.f.d. (PhD), Afraganus universiteti dotsenti

**Sevil Piriyeva Karaman**, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktaranti

**Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li**, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

**Utayev Uktam Choriyevich**, O'zR Bosh prokururasi boshqarma boshlig'i o'rinosari

**Ochilov Farxod**, O'zR Bosh prokururasi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti bo'limi boshlig'i

**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna**, TDIU katta o'qituvchisi

**Ekspertlar kengashi:**

**Berkinov Bazarbay**, iqtisodiy fanlari doktori, professor

**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich**, i.f.d, TDIU dotsenti

**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich**, i.f.f.d, TDIU dotsenti

**Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi**, i.f.d., TMI dotsenti

**Babayeva Zuhra Yuldashevna**, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

**Muassis:** "Ma'rifat-print-media" MChJ

**Hamkorlarimiz:** Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi,  
O'zR Bosh prokururasi huzuridagi IJQK departamenti.



# MUNDARIJA

Milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda investitsiyalarning roli va ahamiyati.....	10
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Zaynutdinova Umida Djalolova	
Yashil iqtisodiyotga o'tishda konseptual, ilmiy, innovatsion yondashuvning zarurati .....	16
Gulnora Abdurahmonova	
O'zbekistonda "yashil" iqtisodiyotga o'tish muammolari va uni bartaraf etish yo'llari .....	22
S. R. Topildiyev	
Milliy strategik maqsadlar: ekologik va bojxona boshqaruvi mexanizmlarining maqbul kombinatsiyasi .....	28
Muratova Shohista Nimatullayevna	
Green Economy in Tourism in Uzbekistan.....	32
Alieva Makhbuba Toychievna	
Инновационные подходы в сельском туризме: "Зеленые маршруты" .....	36
Голышева Елена Вячеславовна	
Mamlakatimizda "yashil" iqtisodiyotni rivojlantirish strategiyasining ustuvor yo'naliishlari .....	42
Vaxabov Abduraxim Vasikovich, Nazarov Nazirjon Narzilloyevich	
To'qimachilik sanoati korxonalarini barqaror rivojlantirish omillari.....	47
A.Yu. Mardanov	
Turizmni qayta jlonlantirish strategiyasini ishlab chiqishda turizmni rejalashtirishning istiqbollari.....	52
A'zamov Saidakbarxon Avazxon o'g'li	
O'zbekistonda qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishi asosida barqaror rivojlanishga erishish .....	57
Abdullahayev Elyorbek Odiljon o'g'li	
Barcha tadbirkorlik subyektlariga teng raqobat sharoitini yaratishda soliq imtiyozlarining o'rni .....	62
Akbarov Akmalxon Akrom o'g'li	
Turistik hududlarning barqaror rivojlanishini baholash metodologiyasida integral baholash ko'satkichlarini aniqlashning nazariy jihatlari.....	66
Asraqulov Abduraxmon Sultonovich	
Iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashda "yashil" iqtisodiyot va uning ayrim masalalari .....	70
Axunova Shoxistaxon Nomonjanovna, Sultonova Gulbaxor Shoxnazimovna	
Davlatning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda qishloq xo'jaligi faoliyatining nazariy tamoyillari va o'ziga xos xususiyatlari.....	74
Bekmirzayev Mirzoxid Adashaliyevich	
Mintaqa iqtisodiyotida agrar soha samaradorligini oshirishning ahamiyati.....	78
Butanova Dilnoza Rustamovna	
Global krizislар va ularning turizm iqtisodiyotiga ta'siri.....	83
Hallakova Barnoxon bahodirjonovna	
Agroturizm faoliyati rivojlanishining xorijiy tajribalari va ularda faoliyatni rivojlantirish modellarining qo'llanilishi .....	95
Husanboyev Sadafbek Yorqinjon o'g'li	
Yashil iqtisodiyotni kreditlashda banklarning o'rni.....	101
Ibragimova Sevara Muxamedjan qizi	
Qurilish materiallari sanoati korxonalari samaradorligini baholash masalalari .....	104
Isayev Jakhongir Muzaffarovich	
Iqtisodiyotni islomiy moliya tamoyillari asosida moliyalashtirish amaliyotini joriy etish istiqbollari .....	110
Kasimov Baxtiyor Usmanovich	
Oziq-ovqat sanoatida tadbirkorlik faoliyatini tashkil etishning iqtisodiy mexanizmi.....	113
Mahamatova Maftuna	
Turizm xizmatlar bozorida raqobatbardoshlik ko'satkichlarini takomillashtirish imkoniyatlari.....	119
Nurfayziyeva Mohinur Zayniddinovna	



Islom moliyalashtirish xizmatlari asosida kichik va o'rta biznesni moliyalashtirish usullari.....	124
<b>Said Po'latov Maxamedovich</b>	
Using Innovative Technologies in Hotels as a Factor of Sustainable Development of Tourism Industry .....	128
<b>Sayfutdinov Shuxratjon Sultonovich, Egamberdiyev Sirojiddin Sattor o'g'li</b>	
Dorivor o'simliklar yetishtirishning dunyo mamlakatlari iqtisodiyotidagi o'rni va xalqaro bozor savdosida prognozlar.....	135
<b>To'xtabayev Jamshid Sharofiddinovich, Maftuna Ermatova Arslonbek qizi</b>	
O'zbekistonga turistlar tashrifini ko'paytirishda raqamli texnologiyalarning o'rni .....	142
<b>Toshmurod Kulmanov</b>	
Agrobiznesni moliyaviy quvvatlash va rivojlanish istiqbollari .....	147
<b>Tursunova Dilnavo Islomovna</b>	
Oziq-ovqat bozorini qandolat mahsulotlari bilan to'ldirishda marketing strategiyalaridan foydalanishni takomillashtirish .....	150
<b>Azlarova Munira Muxammad-Amin qizi</b>	
Yoshlar turizmini rivojlantirish holati va uni takomillashtirish yo'llari.....	159
<b>Allayor Norboyev Ismoilovich</b>	
Biologik aktivlarni baholashning uslubiy jihatlarini takomillashtirish.....	162
<b>Boltayev Abror Sayitmuradovich</b>	
Agrosanoat ishlab chiqarishida innovatsion jarayonlarni tadqiq qilishga uslubiy yondashuvlari.....	168
<b>Dusmatov Begmuhammad Olimjonovich</b>	
Suv resurslaridan samarali foydalanishda suv solig'ining ahamiyatini oshirish .....	174
<b>Ikramov Nuriddin Kamoliddinovich</b>	
Xizmat ko'rsatish sohasida innovatsiya va innovatsion faoliyat bilan bog'liq tushunchalarining nazariy masalalari .....	179
<b>Mamatyunus Qarshibayevich Pardayev, Temur Olimovich Mamayunusov</b>	
Aglomeratsiya iqtisodiyoti – Aglomeratsiya iqtisodiyoti – hududiy rivojlanishni harakatlantruvchi omili sifatida .....	185
<b>Raximbayev Akmal Azatboevich</b>	
Korxonalarni boshqarish samaradorligini oshirishda innovatsion yondashuvlardan foydalanish mexanizmlari .....	190
<b>Saipnazarov Sherbek Shaylavbekovich</b>	
Globalashuv sharoitida turizm sohasida innovatsion faoliyatni rivojlantirishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmini takomillashtirish .....	195
<b>Salimov Dilshodbek Davronovich</b>	
To'qimachilik sanoat korxonalarida marketing strategiyasi.....	199
<b>Tillyaxodjayev Azizzon Aloxonovich</b>	
Oziq-ovqat sanoati korxonalari raqobatbardoshligini oshirish yo'llari .....	203
<b>Nilufar Umarova</b>	
O'zbekistonda transport xizmatlari ko'rsatilishi tahlili .....	207
<b>Xasanov Sarvar Ulug'bek o'g'li</b>	
Agrar sektorga jalb qilingan investitsiyalarning sohadagi intensiv iqtisodiy o'sishga ta'sirining tahlili .....	213
<b>Yangiboyev Sirojiddin Jo'ramurodovich</b>	
Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligiga a'zo davatlarda auditning xalqaro standartlarini qo'llash xususiyatlari .....	220
<b>Meliyev Isroil Ismoilovich</b>	
Raqamli bank xizmatlarini yanada takomillashtirish: muammolar va yechimlar.....	227
<b>Melikov Otabek Maxmadiminovich</b>	
Innovatsion iqtisodiyotda inson kapitalining tutgan o'rni.....	232
<b>Abdikarimov Islombek Ibragimovich</b>	
Kimyo sanoati korxonalarini boshqarish modellariga oid zamонавиј тажрибали.....	237
<b>Avulchayeva Feruza Djurakuziyevna</b>	
Zadachi predmeta «russkogo jazyke» na sovremennom etape.....	243
<b>Adilova Solixxon</b>	



Tijorat tashkilotlarining investitsiya faoliyati .....	247
<b>Farhod Mahmudovich Tirkashyev, Asomiddinov Husan Asomiddin o'g'li</b>	
Korrelyatsion-regression tahlil orqali turizm xizmatlari samaradorligini oshirish mexanizmlari.....	252
<b>Gapparov Azim Qayumovich</b>	
O'zbekistonda monetizatsiya darajasi va uni makroiqtisodiy ko'rsatkichlarga ta'siri.....	258
<b>Isayev Atabek Djurabayevich</b>	
Prospects for the Development of Bond Circulation in the Capital Market.....	266
<b>Jurabek Sobirov</b>	
Ta'lim xizmatlari bozorida oliv ta'lim muassasalarining rivojlanish holati tahlili.....	270
<b>Kuldashev Sherzod Alimardonovich</b>	
Iqtisodiyotga investitsiyalarni jalb qilish va ularning barqaror iqtisodiy o'sishdagi roli .....	276
<b>Mamadiyorova Dilorom Ravshan qizi</b>	
Surxondaryo viloyatlarning marketing salohiyatini shakllantirish holati tahlili .....	280
<b>Mamadjanova Tuyg'unoy Axmадjanovna</b>	
Improving Internal Control System .....	287
<b>Mexmonaliyev Ulug'bek Erkinjon o'g'li</b>	
Oliv ta'lim xizmatlarini targ'ib qilishda OTMlar veb-saytlari samaradorligini oshirish.....	291
<b>Musayev Bekjon Shukurillayevich</b>	
Korxonaning narx-navo tizimi va narx siyosatini tahlil qilish .....	298
<b>Musayeva Shoira Azimovna, Usmonova Dilfuza Ilhkomovna</b>	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida tibbiyot sohasini moliyalashtirish istiqbollari.....	302
<b>Muxammadiyev Ramz Zoirjon o'g'li</b>	
Xizmatlar ko'rsatish subyektlarida biznes-modellarining raqamli transformatsiyalashuv konsepsiylari .....	306
<b>N. B. Yahyoxonov</b>	
Mikromoliaviy xizmatlar ko'rsatuvchi kredit tashkilotlarining samaradorligiga ta'sir etuvchi omillarning ekonometrik tahlili.....	311
<b>Nazarova Muslima Nazarovna</b>	
Sanoat korxonalarida aylanma mablag'lardan foydalanishning ilmiy-amaliy jihatlari.....	317
<b>Nurmatov Mirzaakbar Mirzaaliyevich</b>	
Biznesni yuritishda korxonalararo integratsion jarayonlarni rivojlantirish masalalari.....	322
<b>Olimova Nodira Xamrakulovna</b>	
O'zbekistonda turizmni rivojlantirishning moliyaviy mexanizmlari: tahlil va istiqbollar .....	329
<b>Oppoqxonov Nurmuhammadxon Po'latxon o'g'li</b>	
O'zbekistonda davlat korxonalari transformatsiyasini jadallashtirish yo'nalishlari .....	333
<b>Qahhorov Azizjon Ahror o'g'li</b>	
Aholining turmush darajasini oshirish sharoitida mehnat bozori transformatsiyasining dinamikasi .....	338
<b>Rahimboev Muxtorbek Ikrom o'g'li</b>	
Tijorat banklarida iqtisodiy-matematik modellashtirish samaradorligini yanada oshirish usullari.....	341
<b>Raxmanov Mexridin Sindarovich</b>	
Aholi moliyaviy savodxonligiga investitsiya kiritishning ahamiyati .....	345
<b>Ruzibayeva Nargiza Xakimovna</b>	
Makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda valyuta siyosatini samarali tashkil etish.....	350
<b>Samandarov Zuxriddin Raup o'g'li</b>	
Sharq va G'arb tamaddunida gender qarashlar .....	355
<b>Samandarova Gulxayo Abdukarim qizi</b>	
Imkoniyati cheklanganlarga to'siqsiz turizm xizmatlarini tashkil etish istiqbollari .....	359
<b>Tilovmurodov Dostonbek Furqat o'g'li</b>	
To'qimachilik korxonalarining inqirozga qarshi boshqaruvida	
davlat tomonidan tartibga solishning ahamiyati .....	363
<b>Todjimatova Mashxura Erkinovna</b>	
Mintaqalarning ekologik-iqtisodiy xususiytlari va ularning barqaror rivojlanish bilan bog'liqligi .....	367
<b>Toshboyev Muzaffar Muxtorovich</b>	



Перспективы развития сферы услуг в Узбекистане .....	373
Tsoy Marina Petrovna, Li Marina Rudolfova, Romashkin Roman Anatolyevich	
Opportunities for Bicycle Tourism in Zomin, Bulungur and Bakhmal Districts .....	379
Urozaliev Elyor Shuxrat ogli, Xujamov Bobur bahodir ogli, Saydullayev Abbasjon Murodovich	
Pul-kredit siyosati va moliyaviy inqiroz: uslubiyot va saboqlar .....	384
Xakimov Dilshodjon Rahmonaliyevich	
Korxonalarda barqaror rivojlanishni tatbiq etish istiqbollari.....	391
Xidirova Marg'uba Rustamovna, Jumayeva Guzal Sherxon qizi	
Telekommunikatsiya korxonalari faoliyati samaradorligini oshirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish .....	396
Xusanov Ulugbek Nishanovich	
Milliy iqtisodiyotning raqamli transformatsiyasini kengaytirish imkoniyatlari.....	402
Xuseynova Feruzabonu Mamadaliyevna	
O'zbekiston iqtisodiyotida raqamli texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari.....	405
Yo'ldosheva Dilnoza G'ayrat qizi	
Необходимость соблюдения этических норм в профессиональной деятельности бухгалтеров .....	408
Абдуллаханова Гулбахор Саттаровна	
Mintaqalarda kichik innovatsion korxonalarни rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari.....	412
Abdulxakimov Zuxrali Tursunaliyevich, Axmadjanov Ilyosbek Ilhomjon o'g'li	
Tadbirkorlik faoliyatini rivojlanishini nazariy masalalari .....	416
Abdulxakimov Zuxrali Tursunaliyevich, Abduraxmonov Sherali Sharifjonovich	
Пути повышения прозрачности бюджета Республики Узбекистан.....	420
Адашов Гайрат Рустамович	
Mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligi va uning lizing munosabatlari rivojlanishi bilan bog'liqligi .....	424
Axmediyeva Aliya Toxtarovna	
Тенденции и факторы развития пищевой промышленности в Узбекистане .....	432
Б. А. Хакимов	
Роль платежных систем в функционировании электронной коммерции .....	438
Бабаева Гузаль Яшиновна	
"Sirdaryo" va "Sirdaryo-Farm" erkin iqtisodiy zonasidagi xorxonalari erishgan yutuqlari, berilgani imtiyozlar va yaratilgan shart-sharoitlar to'g'risida .....	444
Davlayev G'olib Ashurovich	
Milliy iqtisodiyotga jalb qilingan investitsiyalarning tahlili .....	447
Djalilov Dostonbek Abduazizovich	
Ishlab chiqarish tafovutining Markaziy Bank monetar siyosati qarorlariga ta'siri.....	452
Duskobilov Umidjon Sharofiddinovich	
O'zbekistonda innovatsion jozibadorlik asosida oliy talim xizmatlarini rivojlantirish.....	457
Jonuzokov M. K.	
Aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruvni takomillashtirishda xorij tajribasidan foydalanish .....	461
Ismailov Alliyor Rashidovich	
Особенности формирования ценовой стратегии на рынке плодоовощной продукции.....	465
Исройлов Абдурашид Абдурахманович	
Iqtisodiyotni globallashuvi sharoitida xo'jalik yurituvchi subyektlar barqarorligining nazariy metodologiyasini takomillashtirish .....	471
Kalандарова Наргиза Наримановна	
Проблемы регулирования и защиты инвесторов в развитии электронной коммерции и пути их решения .....	475
Кенжебаева Гульфуза Раҳматиллаевна	
Сущность, цели и задачи определение уровня финансовой устойчивости предприятия в современных условиях .....	478
Киличев А. А.	
Sug'urta tashkilotlari tomonidan taqdim etiladigan hisobotlarni xalqaro standartlarga muvofiq takomillashtirish .....	485
Kodirkulov Oybek Turdiboyevich	




Классификация институциональных факторов, определяющих предпринимательскую активность в Узбекистане.....	490
<b>Курпаяниди Константин Иванович</b>	
Xo'jalik yurituvchi subyektlarning kredit va qarz mablag'laridan foydalanish samaradorligi tahlilini takomillashtirish.....	497
<b>Mahmudova Go'zal Samadjon qizi</b>	
Muqimiy ijodiDA milliy uyg'onish va iqtisodiy, falsafiy qarashlar .....	502
<b>Muxlisa Muxitdinova</b>	
Совершенствование управления портфелем залогов для обеспечения финансовой устойчивости: инсайты и рекомендации для Узбекистана .....	505
<b>Наимов Шахрух</b>	
Определение специфических особенностей и факторов влияющие на процесс внедрения международных требований и стандартов в коммерческих банков Республики Узбекистан.....	509
<b>Хайдаров Зохир Шаривович , Каражанова Гулназа Толлиевна, Хайдари Фидои Зохир Зода</b>	
Inson kapitalida mujassam bo'lgan fazilatlar, ularning jamiyat rivojlanishidagi o'rni va roli .....	514
<b>Mamayunus Qarshibayevich Pardayev, Sevara Abdinazarovna Babanazarova, Mexrangiz Olimovna Mamayunusova</b>	
Развитие рыночных отношений и усиление их влияния на рост объёмных и качественных показателей культурного туризма.....	521
<b>Пулатова Сурайё Юлдашевна</b>	
Основные направления цифровой трансформации в банковском секторе.....	525
<b>Рахимова Гавхар Ойбековна</b>	
O'zbekistonda ayollarni tadbirkorlik faoliyatini moliyalashtirishda bank kreditlarining roli .....	530
<b>Saidova Subhinigor Azizovna</b>	
Xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish asosida kambag'allikni qisqartirishning innovatsion yo'llari .....	535
<b>Sultonov Shodiyor Abduhalilovich, Nazarov Asqar Anvar o'g'li</b>	
Yuridik shaxslar mol-mulkiga soliq solishning o'ziga xos xususiyatlari .....	541
<b>Umirov Xurshid Islomovich</b>	
Korxonalar va tashkilotlarni modernizatsiya qilish jarayonlari.....	545
<b>Fayziyeva Dilafruz Shuxratovna</b>	
"Авеста" – исторический источник экономической мысли в Древней Средней Азии .....	549
<b>Хакимов Назар Хакимович, Садиков Анвар Каримович</b>	
Priorytetnye napravleniya razvitiya teorii formirovaniya finansovoy politiki predpriyatiya .....	555
<b>Хамдамов С. Ф.</b>	
Innovatsion rivojlanish sharoitida inson resurslarini strategik boshqarish.....	562
<b>Xasanova Nafisa Shavkatovna</b>	
Mehnat bozorida mehnat resurslaridan samarali foydalanishda yoshlar bandligini takomillashtirish.....	566
<b>Xuvaydullayeva Iroda Xusniddin qizi</b>	
Sanoat korxonalari faoliyati samaradorligi va raqobatbardoshligini baholashga doir uslubiy yondashuvlar.....	572
<b>Yuldasheva Nilufar Abduvaxidovna</b>	
Amir Temur davrida hunarmandchilik siyosatining o'ziga xos iqtisodiy xususiyatlari .....	578
<b>Zikrillayev Jaxongir Sarvar o'g'li, ilmiy rahbar: Nasimov Baxtiyor Vasiyevich</b>	
Infratzilma obyektlari rivojlanishining turizm sohasidagi o'rni.....	583
<b>Toyirova Amina Baxtisher qizi</b>	
Korxonalarda moliyaviy investitsion portfeli jalb qilish va rag'batlantirishning zamonaviy shakl va usullari tahlili .....	588
<b>Haydarov Humoyun Begmurod o'g'li</b>	
Kichik biznes korxonalari raqobatbardoshligini tadqiq etishga konseptual yondashuvlar .....	592
<b>K. Q. Tajibayev</b>	
Buxgalterskiy учет дебиторской и кредиторской задолженности в современной экономике .....	599
<b>Камолова Феруза Каҳрамоновна</b>	



O'zbekistonda mehmonxona sohasidagi mahalliy boshqaruv tizimini takomillashtirish yo'llari .....	603
<b>Mirzayeva Lola Shavkatovna</b>	
Turizmni rivojlantirishda "yashi" marketingni o'rni .....	607
<b>Normurodova Zebo Eshmaxmatovna</b>	
Inson kapitalini boshqarishning xorij tajribasi.....	612
<b>Ruzmetova Gulira'nno Atabekovna</b>	
Agrasanoat majmuasida oziq-ovqat mahsulotlarini yetishirish va qayta ishlashda klasterlarini rivojlantirishning xalqaro tajribalari.....	620
<b>Salixov Sherzod Abdusakimovich</b>	
Mamlakatimizda mehnat bozorida ayollarning iqtisodiy faolligini oshirish .....	625
<b>Xusanova Gulsum Baxtiyorovna</b>	
Budjetdan tashqari mablag'lar hisobi va nazoratini takomillashtirish .....	628
<b>Ostonokulov Azamat Abdukarimovich, Alimardonov Asrorjon Alimardonovich</b>	
Xizmat ko'rsatish sohasida investitsion jarayonlar rivojlanishining xorij tajribasi .....	635
<b>Miyassarov Davron Abdurashid o'g'li</b>	
Xizmat ko'rsatish va servis sohasida mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligini baholash ko'rsatkichlari.....	640
<b>Muhammadamin Erdon o'gli Erdonov</b>	
Инновационные направления развития сферы услуг как фактор экономического роста .....	644
<b>Насиров Дилшод Фархадович</b>	
Влияние прямых иностранных инвестиций (пии) на экономику Узбекистана .....	654
<b>Юлдашев Нодирбек Сайдибурханович</b>	
Qulay investitsiya muhiti – xorijiy investitsiyalar oqimini oshirishning asosiy omilidir.....	659
<b>Hoshimov Jahongir Ravshanbek o'g'li</b>	
Biznesni loyihibaviy moliyalashtirish va uning asosiy yo'nalishlari.....	664
<b>Razzakov Jasur Xamraboyevich</b>	
Inflation and Unemployment: Evidence from Uzbekistan .....	670
<b>Mahmudov Nosir, Nabiyeva Nargizaxon Nuriddin qizi</b>	
Milliy mahsulotlarni jahon bozoriga olib chiqishda marketing strategiyalaridan foydalanish .....	677
<b>Meliqulov Abdughalil Norinovich</b>	
O'zbekistonda kichik sanoat zonalarini tashkil etish va rivojlantirishda xorij tajribalaridan foydalanishning ustuvor yo'nalishlari .....	683
<b>Ortiqov Avazbek Bahrom o'g'li</b>	
Rene Dekart va Blez Paskal ta'limgotlarida ratsional g'oyalar komparativistikasi.....	689
<b>Ruzmatova Gulnoz Miraxrarovna</b>	
Sanoat korxonalarining barqaror rivojlanishining nazariy-uslubiy asoslari .....	694
<b>Samijonov Musobek G'ayratjon o'g'li</b>	
The Importance of the World Trade Organisation (WTO) and Uzbekistan's Efforts to Join It.....	699
<b>Urozaliev Elyor, Khoshimova Sevara</b>	
Jismoniy tarbiya va sport muassasalarini moliyalashtirishdagi mavjud muammolar .....	705
<b>Abduqaxorov Ulug'bek Abdug'aniyevich</b>	
Yangi O'zbekistonda turizmnинг drayver sifatida barqaror rivojlanish yo'nalishlari .....	709
<b>Tuxliyev Iskandar Suyunovich</b>	
Mahalliy soliqlar va yig'implarning iqtisodiy mohiyati hamda ularni undirishning xususiyatlari .....	713
<b>Tuychiyev Kamoliddin</b>	
Tijorat banklari raqobatbardoshligini oshirishda xorijiy mamlakatlarning ilg'or tajribalari va ulardan foydalanish yo'llari .....	717
<b>Yadgarov Nodir Ravshanovich</b>	
Organik qishloq xo'jaligiga o'tish bosqichlarining tashkiliy jihatlari va iqtisodiy asoslari .....	723
<b>Amirqulov Shuxrat Olimovich</b>	
Davlat xaridlari jarayonida e'tiborsiz ijrochilarni imkoniyatini cheklash masalalari .....	727
<b>G'ofurov Temur Baxrom o'g'li</b>	



O'zbekiston iqtisodiyotida investitsion loyihalarni faol tashkil etish istiqbollari .....	730
Utkurov Kozimjon Dilmurod o'g'li	
Iqtisodiy o'sishni ta'minlashda transport tadbirkorligi faoliyatini rivojlanish imkoniyatlari .....	733
M. Masharipova, I. Ruzmetova, D. Kuramboyeva	
Sug'urta faoliyatini takomillashtirishda anderrayting xizmatining o'rni .....	737
Qarshiyev Daniyar Eshpulatovich	
O'zbekistonda eksportni sug'urtalash mexanizmlarini yanada kengaytirish yo'nalishlari .....	741
Qarshiyev Keldiyor Eshpulatovich	
Kambag'allikni qisqartirishda aholini tadbirkorlikka yo'naltirish.....	745
Rajabboyev Muzaffar Erkaboyevich	
Yoqilg'i-energetika korxonalarining moliyaviy barqarorligining ilmiy nazariy asoslari.....	749
Xusanov Qaxramon Nishonovich	
Ocenka rezul'tatov reformatii buxgalterskogo cheta v Respublike .....	753
Kiliçeva Farida Beşimovna, İrmuxamedova Müslima Dilşodovna	
Effektivnost' programm sootvetstvija v razlichnykh kompanijakh .....	757
Ahmedov Behzod Ahmedovich	
Elementy sistemy vnutrennego kontrolya v vybrannom finansovom institutute .....	762
Xasanov Kaҳramon Ahmadjanovich	
Authentic Leadership Unleashed: A Comparative Analysis of Leadership Styles.....	767
Esanova Shohida Utkirovna	
Investitsion loyihalarni moliyalashtirishdagi moliyaviy risklarni boshqarishning ilg'or xorij tajribalari .....	774
Madiyarov Sanjar Gulyamovich	
Paxta-to'qimachilik klasterlarida xarajatlar hisobining uslubiy masalalari takomillashtirish .....	781
Toshpo'latov Azizbek Shermuxamadovich, Umaraliyev Isomidin Ismonjon o'g'li	



# BIZNESNI LOYIHAVIY MOLIYALASHTIRISH VA UNING ASOSIY YO'NALISHLARI

**Razzakov Jasur Xamraboyevich**

PhD, Toshkent moliya instituti “Moliya” kafedrasi professori

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada biznesni loyihaviy moliyalashtirish va uning asosiy yo'nalishlarini o'rganishda turli tadqiqotlarning fikr-mulohazalari tadqiq qilingan. Biznesni loyihaviy moliyalashtirish va uning asosiy yo'nalishlarini o'rganishda qo'llanilgan metodlar keltirib o'tilgan. Biznesni loyihaviy moliyalashtirish biznesni moliyalashtirish shakllari, biznesni loyihaviy moliyalashtirishning xususiyatlari, ishtirokchilari hamda foydalaniladigan hujjatlar asosida tahlil qilingan. Amalga oshirilgan tadqiqotlar asosida tegishli xulosalar va takliflar shakllantirilgan.

**Kalit so'zlar:** biznes, biznesni moliyalashtirish, loyihaviy moliyalashtirish, maxsus maqsadli loyiha (SPV), loyiha ishtirokchilari, investor, kreditor.

**Abstract:** This article studies the opinions of various researchers in the study of business project financing and its main directions. The methods used in the study of business project financing and its main directions are mentioned. Business project financing is analyzed based on forms of business financing, features of business project financing, participants and documents used. Relevant conclusions and proposals are formed based on the conducted research.

**Key words:** business, business financing, project financing, special purpose vehicle (SPV), project participants, investor, creditor.

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются мнения различных исследователей в области изучение проектное финансирование бизнеса и его основных направлений. Упомянуты методы, используемые при изучение проектное финансирование бизнеса и его основные направления. Проектное финансирование бизнеса было проанализировано на основе форм финансирования бизнеса, особенностей финансирования бизнес-проекта, участников и используемых документов. На основании проведенного исследования были сформированы соответствующие выводы и предложения.

**Ключевые слова:** бизнес, финансирование бизнеса, проектное финансирование, компания специального назначения (SPV), участники проекта, инвестор, кредитор.

## KIRISH

Biznesni samarali tashkil etish barcha turdag'i kompaniyalar faoliyatidagi asosiy maqsad hisoblanadi. Kompaniyaning investitsiya qilingan mablag'laridan maksimal foya olish loyiha va biznes muvaffaqiyatining muhim tarkibiy qismidir. Mazkur maqsadlarga erishishda moliyalashtirishning turli shakllaridan foydalanish, ularning ichida eng samarali shaklini tanlash hamda mazkur jarayonda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan risklarni aniqlash zarur. Bugungi kunda xalqaro amaliyotda biznesni moliyalashtirishda biznesni loyihaviy moliyalashtirish amaliyotidan keng foydalanilmoqda. Chunki biznesni loyihaviy moliyalashtirishda riskni diversifikatsiyalash, mablag'ni aynan bir loyihaga yo'naltirish, loyihani moliyalashtirishda bir necha investorlarni jalb qilish kabi imkoniyatlarning yuzaga kelishi biznesni loyihaviy moliyalashtirishning ommalashishiga sabab bo'lmoqda. Milliy amaliyotda biznesni loyihaviy moliyalashtirish amaliyotidan foydalanishni kengaytirish hamda uning ijobji jihatidan foydalanish zarur. Bu orqali turli loyihalarni samarali amalga oshirish imkoniyatlari oshadi. Shu boisdan biznesni loyihaviy moliyalashtirish va uning asosiy yo'nalishlarini o'rganish dolzarb hisoblanadi.

## ADABIYOTLAR SHARHI

Biznesni loyihaviy moliyalashtirish xalqaro amaliyotda keng qo'llaniladigan moliyalashtirish shakllaridan biri ekanligi sababli ko'plab tadqiqchilar tomonidan mazkur moliyalashtirish shakli bo'yicha tadqiqotlar olib borilmoqda. S. Gatti fikricha, "loyihaviy moliyalashtirish deganda yagona, yuqori kapital talab qiladigan, uzoq muddatli biznes tashabbusini moliyalashtirish tushuniladi. Ushbu tashabbus maxsus maqsadli loyihaga (SPV)



kiritilgan bo'lib, uning aktivlari kreditorlarga qarzni to'lash uchun yagona manba sifatida loyiha tomonidan yaratilgan pul oqimidan foydalaniladi hamda garov vazifasini bajaradi”<sup>[1]</sup>.

Bir guruh olimlar o'z tadqiqotlarida “maxsus maqsadli loyihalar (SPV) investor kompaniyalardan qonuniy jihatdan mustaqildir. Ushbu sektor o'sib bormoqda va yirik xalqaro kapital loyihalari bilan ajralib turadi”<sup>[2]</sup>, deb izoh berishgan. Demak, uzoq muddatli loyiha sifatida amalga oshirilishi hamda katta mablag' talab qilganligi sababli bir necha investor tomonidan moliyalashtirilishi loyhaviy moliyalashtirishning o'ziga xos jihatli hisoblanadi.

A.Firouzi, A.Meshkani “loyhaviy moliyalashtirish butun dunyo bo'ylab qayta tiklanadigan energiya malarini ko'p talab qiladigan loyihalarda qo'llaniladi. Yirik banklar va institutsional investorlar kabi moliyaviy subyektlar infratuzilma loyihalari uchun sindikatlashtirilgan kreditlar berishda faol ishtirok etadilar va ushbu loyihalar egalariga yaxshiroq shartlarni taklif qilish uchun raqobatlashadilar”<sup>[3]</sup>, deya ta'kidlagan. Mazkur jihat loyhaviy moliyalashtirishning bugungi kundagi asosiy yo'nalishlarini ko'rsatib beradi.

J. Barroco, M. Herrera “loyhaviy moliyalashtirish qayta tiklanadigan energiya loyihalari uchun kapitalni jalb qilish uchun kuchli vositadir, ammo rivojlanayotgan mamlakatlarda mazkur jarayonda qiyinchiliklar kuza tilmoqda”<sup>[4]</sup>, deb o'z tadqiqotlarida keltirib o'tgan. Loyhaviy moliyalashtirishning ijobiy jihatlari bilan bir qatorda kamchilik jihatlarini ham unutmaslik lozim.

R. Bruner ta'kidlashicha, “loyhaviy moliyalashtirish yirik kapital qo'yilma loyihalarini tashkil etish va moliyalashtirish usuli hisoblanadi. Loyhaviy moliyalashtirish an'anaviy moliyalashtirish strategiyalariga qaraganda risklar va daromadlarni samaraliroq taqsimlash usuli deyish mumkin. Muayyan turdag'i risklarni bartaraf etish imkoniyatiga ega bo'lgan loyihalar uchun mazkur moliyalashtirish usuli qo'llaniladi. Natijada moliyalashtirishning umumiyligi past bo'ladi, iste'molchilar va investorlar uchun ortiqcha yo'qotishlarni bartaraf etish va bosh-qacha tarzda amalga oshirilishi mumkin bo'lgan loyihalarni muvaffaqiyatli yakunlash imkoniyatini taqdim etadi”<sup>[5]</sup>. Loyhaviy moliyalashtirishda risklar hamda daromadlarning shakllanishiga alohida e'tibor qaratish zarur.

Yana bir guruh tadqiqotchilar fikricha, “loyhaviy moliyalashtirishning asosiy afzalligi shundaki, u resurssiz moliyalashtirish imkonini beradi. Bu kompaniyalar uchun yuqori darajadagi leverejni ta'minlaydi va qarzni balansdan tashqari hisob-kitob qilishga imkon beradi. Kelishuvlarning katta hajmda ekanligi risklarni taqsimlashga imkon beradi va an'anaviy moliyalashtirish usullariga nisbatan samaral daromad keltiradi. Loyhaviy moliyalashtirishning kamchiliklaridan biri ishtirokchilar sonining ko'payishi tufayli jarayonning murakkabligi hisoblanadi. Loyhaviy moliyalashtirish yuqori tranzaksiya xarajatlarini o'z ichiga oladi va loyihani moliyalashtirish uchun jalb qilingan kapital bahosi qimmatroq hisoblanadi. Shu sababli bank talablari keng miqyosdagi moliyaviy, texnik va risk tahlillarini amalga oshirishni nazarda tutadi”<sup>[6]</sup>. Loyhaviy moliyalashtirishda ham boshqa moliyalashtirish shakllarida bo'lganligi singari o'ziga xos afzalliklar va kamchiliklar mavjud.

B.Mamatov, D.Xujamkulov va O.Nurbekovlar ham loyhaviy moliyalashtirish bo'yicha tadqiqotlar olib borishga bo'lib, ularning tadqiqotlariga ko'ra, “iqtisodiyotni modernizatsiya qilish ustuvor tarmoqlarda investitsiyalarni loyhaviy moliyalashtirishni rivojlantirishning zarurligini quydagilar bilan izohlash mumkin. Birinchidan, investitsiyalarni loyhaviy moliyalashtirish yirik obyektlar barpo etish bog'liq katta xarajatlarni moliyalashtirishni nazarda tutadi. Ikkinchidan, loyhaviy moliyalashtirishda investitsiya resurslari birlashib, yirik investitsiya loyishini oshirish va moliyalashtirishga safarbar etiladi. Uchinchidan, iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlarida yirik ishlab chiqarish loyihalarini amalga oshirish kompleks ekspertizaning yoki loyhaviy tahlilning tegishli tartibda amalga oshirilishini talab qiladi. To'rtinchidan, moliyalashtirishda risklarni ishtirokchilar o'rtasida taqsimlash orqali loyiha samaradorligini ta'minlaydi”<sup>[7]</sup>.

Bir guruh mahalliy olimlar loyhaviy moliyalashtirish mazmum-mohiyatiga hamda xususiyatlariga to'xtalib o'tishgan. “Loyhaviy moliyalashtirish - bu bank kreditlashining bir turi bo'lib, investitsion loyihalarni kreditlashda kreditor qisman yoki to'liq majburiyatni (xatarni) ham o'z bo'yniga oladi. Loyihalarni tuzishda bevosita maxsus kompaniyalar ishtirok etadi. Oddiy kredit operatsiyalarida bank mijozning to'lov quvvati, loyhaviy holati bilan qiziqsa, loyhaviy moliyalashtirishda asosiy diqqat loyhaviy tahlilga qaratiladi. Buning uchun loyihaning ta'sirchanlik darajasini baholash, “zararsizlik nuqta”sini belgilash kabi usullaridan foydalaniladi. Loyhaviy moliyalashtirishda risk darjasini yuqoriligini hisobga olib, kreditorlar investitsion loyihalarni amalga oshirishda xatarlarni boshqarishning eng foydali bo'lislarni ta'minlashga harakat qiladi. Riskni kamaytirishning an'anaviy usullaridan tashqari, infestitsion loyihalar amalga oshirishdagi ishtirokchilarga uni taqsimlash usullari ham qo'llaniladi”<sup>[8]</sup>.

Yuqorida guruh olimlar hamda tadqiqotchilarning fikrlariga qo'shilgan holda ta'kidlash mumkinki, biznesni loyhaviy moliyalashtirish xalqaro amaliyotda keng qo'llanilmoqda, biroq mazkur moliyalashtirish shaklining o'ziga xos xususiyatlarini, afzallik va kamchilik tomonlarini inobatga olish zarur.


## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Biznesni loyhaviy moliyalashtirish va uning asosiy yo'nalishlarini o'rganishda ilmiy abstraksiyalash, kuza tish, taqqoslama tahlil, deduksiya kabi metodlardan foydalanilgan.



## TAHLIL VA NATIJALAR

Biznesni moliyalashtirishning bir qator shakllari mavjud bo'lib, kompaniya foydasi, turli jamg'armalar, sherikchilik, aksiyalar, obligatsiyalar, kraufdanding, davlat-xususiy sherikchilik kabi usullar biznesni moliyalash-tirishda ko'p qo'llaniladi (1-rasm). Agar kompaniya biznes operatsiyalaridan yetarlicha sof foydaga ega bo'lsa, soy foydadan foydalangan holda yangi loyihani moliyalashtirishi mumkin. Biznesni moliyalashtirishda shakllantirilgan jamg'armalar orqali ijobjiy pul oqimlarini yuzaga keltirish mumkin hamda bu orqali loyihani moliyalashtirish mumkin. Ushbu yondashuvning salbiy tomoni shundaki, yetarli miqdorda jamg'armani shakllanti-rish uchun yillar kerak bo'lishi mumkin. Shuningdek, loyihani amalga oshirish uchun zarur bo'lgan xaratjatlar va majburiyatlarni amalga oshirishda sherik bo'lishi mumkin bo'lgan boshqa kompaniyalar yoki investorlar bilan sherikchilikni yo'lga qo'yish biznesni moliyalashtirish uchun yana bir potensial variantdir. Bu loyiha samaradorligini oshiradigan vertikal yoki gorizontal integratsiyalarni taklif qilsa, mazkur loyiha yanada jozibador bo'lishi mumkin. Bugungi kunda xalqaro amaliyotda keng uchraydigan biznesni moliyalashtirish shakllari sifatida aksiyalar va obligatsiyalar emissiyasini ta'kidlash lozim. Kompaniya aksiyalarini investorlarga sotish orqali kapital jalb qilish mumkin. Obligatsiyalar emissiyasi kompaniyaga biznesni qarz evaziga moliyalashtirish imkonini beradi. Mazkur jarayonda loyiha korporativ obligatsiyalar yoki munisipal obligatsiyalar evaziga moliyalashtiri-lishi mumkin. Ko'p sonli kichik investorlardan kapital jalb qilish shakli - kraufdanding ba'zi hollarda loyihalarni moliyalashtirish uchun yetarli mablag'ni ta'minlashi mumkin. Lekin har doim ham mazkur moliyalashtirish shaklida loyihalar uchun zarur bo'lgan katta mablag'larni qo'lga kiritish imkoniyati yuzaga kelmasligi mumkin.



1-rasm: Biznesni moliyalashtirish shakllari tasnifi [9]

EcoSys xalqaro loyihaviy kompaniyasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan shakllantirilgan.

Yana bir biznesni moliyalashtirish shakli davlat-xususiy sheriklik amaliyoti bo'lib, xususiy kompaniyalar ko'pincha davlat infratuzilmasi loyihalari kabi keng ko'lamli ishlarni bajarish uchun davlat tashkilotlari bilan hamkorlik qiladi. Xususiy kompaniya dastlabki investitsiyalarning katta qismini yoki barchasini ta'minlaydi va qurilish tugagandan so'ng loyihadan keladigan mablag'lar evaziga kiritilgan investitsiyalarni qoplaydi. Biznesni moliyalashtirishda mazkur usuldan ham foydalanish holatlari ham ko'p uchraydi (1-rasm).

Bugungi kunda biznesni loyihaviy moliyalashtirish biznes faoliyatini tashkil etishda muhim ahamiyatga ega bo'lmoqda. Biznesni loyihaviy moliyalashtirish bir qancha xususiyatlar bilan tavsiflanishi mumkin (2-rasm). Birinchidan, biznesni loyihaviy moliyalashtirishda kompaniya alohida yuridik shaxs tashkil etilishi mumkin (ya'ni, amalga oshirilgan investitsiyalarni ko'rishni istagan bosh tashkilotdan alohida). Ushbu yuridik shaxs sheriklik



yoki korporatsiya sifatida tashkil etilishi mumkin. Ikkinchidan, kompaniya muayyan biznes yoki aktiv atrofida ham tashkil etilishi mumkin. Biroq, tashkil etilgan kompaniya homiy yoki investordan alohida faoliyat ko'rsatadi. Loyihada aniq belgilangan maqsadlar belgilanadi. Uchinchidan, loyihaviy moliyalashtirish nisbatan qimmatga tushadi. Sharhnomalarda loyihaning turli ishtirokchilarining majburiyatlari, ulushlari va mukofotlari batafsil tavsiflanadi. Buxgalteriya hisobi va monitoring tizimlari loyihaning noodatiy xususiyatlarini hisobga olgan holda moslashtiriladi.

- Alohida yundik shaxs tashkil etilishi mumkin (ya'ni, loyihani amalga oshirayotgan yoki moliyalashtirayotgan investordan alohida). Ushbu yuridik shaxs sheriklik yoki korporatsiya sifatida tashkil etilishi mumkin.
- Kompaniya muayyan biznes yoki aktiv atrofida ham tashkil etilishi mumkin. Biroq, tashkil etilgan kompaniya homiy yoki investordan ajratiladi. Loyihada aniq belgilangan maqsadlar belgilanadi.
- Loyihaviy moliyalashtirish nisbatan qimmatga tushadi. Sharhnomalarda loyihaning turli ishtirokchilarining majburiyatlari, ulushlari va mukofotlari batafsil tavsiflanadi. Buxgalteriya hisobi va monitoring tizimlari loyihaning noodatiy xususiyatlarini hisobga olgan holda moslashtiriladi.
- Loyihani moliyalashtirish uchun zarur bo'lgan katta shartnoma va tranzaksiya xarajatlari tufayli loyiha katta bo'lishi va katta mablag'ni o'z ichiga olishi kerak.
- Ushbu kompaniya homiy va investorlarga murojaat qilmasdan moliyalashtiriladi.

2-rasm: Biznesni loyihaviy moliyalashtirishning ayrim xususiyatlari<sup>[5]</sup>

To'rtinchidan, loyihani moliyalashtirish uchun zarur bo'lgan katta shartnoma va tranzaksiya xarajatlari tufayli loyiha katta bo'lishi va katta mablag'ni o'z ichiga olishi kerak. Beshinchidan, kompaniya homiy va investorlarga murojaat qilmasdan moliyalashtiriladi (2-rasm).



3-rasm: Biznesni loyihaviy moliyalashtirishda maxsus maqsadli loyiha ishtirokchilar<sup>1</sup>

1 Iqtisodiy adabiyotlar asosida muallif tomonidan shakllantirilgan



KREDIT BERISH HUJJATLARI	XAVFSIZLIK HUJJATLARI	LOYIHA HUJJATLARI	AKSIYADORLAR / INVESTORLAR HUJJATLARI
<ul style="list-style-type: none"> <li>Turli kredit shartnomalari:</li> <li>- banklar bilan kredit shartnomasi;</li> <li>- turli agentliklar bilan ko'p tomonlama kredit shartnomalari.</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>Loyihaning barcha aktivlarini qamrab oladi.</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Qurilish bo'yicha kelishuv;</li> <li>• Foydalanish va texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha kelishuv;</li> <li>• Yoqilg'i yoki boshqa ta'minot bo'yicha yetkazib berish kelishuvi;</li> <li>• Sotish bo'yicha kelishuv.</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Loyihaning dastlabki bosqichidagi kelishuvlar;</li> <li>• Aksiyadorlar bilan kelishuv;</li> <li>• Investorlar bilan kelishuv</li> </ul>

4-rasm: Biznesni loyihaviy moliyalashtirishdagi hujjatlari<sup>[10]</sup>

Biznesni loyihaviy moliyalashtirishda bir qancha hujjatlari ham rasmiylashtirilishi lozim. Mazkur hujjatlarni shartli ravishda kredit berish bilan bog'liq hujjatlari, xavfsizlik hujjatlari, loyihaning turli hujjatlari hamda aksiyadorlar yoki investorlar bilan bog'liq hujjatlari kabi guruhlarga ajratish mumkin (4-rasm).

## XULOSA

Biznesni loyihaviy moliyalashtirish va uning asosiy yo'nalishlarini o'rganish orqali quyidagi xulosalar shaklantirilgan.

*Birinchidan*, loyihaviy moliyalashtirish yuqori kapital talab qiladigan hamda uzoq muddatli biznes loyihasini moliyalashtirish shakli bo'lib, mazkur jarayonda maxsus maqsadli loyiha (SPV) amalga oshiriladi hamda loyihada yaratilgan pul oqimidan kreditorlarga qarzni to'lash uchun yagona manba sifatida foydalaniladi.

*Ikkinchidan*, biznesni loyihaviy moliyalashtirishning xususiyatlari sifatida biznesni loyihaviy moliyalashtirishda kompaniya alohida yuridik shaxs tashkil etilishi mumkinligi, ushbu yuridik shaxs sheriklik yoki korporatsiya sifatida tashkil etilishi mumkinligi, loyihada aniq belgilangan maqsadlar belgilanganligi, shartnomalarda loyihaning turli ishtirokchilarining majburiyatları, ulushlari va mukofotlari batafsil tavsiflanganligi, loyihani moliyalashtirish uchun zarur bo'lgan katta shartnoma va tranzaksiya xarajatlari tufayli loyiha katta bo'lishi va katta mablag'ni o'z ichiga olishi kerakligi kabilarni ta'kidlash mumkin.

*Uchinchidan*, loyihaviy moliyalashtirishning asosiy afzalligi resurssiz moliyalashtirish imkoniyatining mavjudligi hisoblanadi. Bu kompaniyalarga yuqori levegerejga erishishga yordam beradi. Kelishuvlarning katta hajmda ekanligi risklarni diversifikatsiyalashga imkon beradi va an'anaviy moliyalashtirish usullariga nisbatan samarali daromad keltiradi. Shu boisdan mamlakatimizda biznesni loyihaviy moliyalashtirish amaliyotini kengaytirish lozim.

*To'rtinchidan*, loyihaviy moliyalashtirishning kamchiliklaridan biri ishtirokchilar sonining ko'payishi tufayli jarayonning murakkabligi hisoblanadi. Loyihaviy moliyalashtirish yuqori tranzaksiya xarajatlarni o'z ichiga oladi va loyihani moliyalashtirish uchun jalb qilingan kapital bahosi qimmatroq hisoblanadi. Shu sababli bank talablari keng miqyosdagi moliyaviy, texnik va risk tahlillarini amalga oshirishni nazarda tutadi. Biznesni loyihaviy moliyalashtirishda mazkur jihatlarga alohida e'tibor qaratish lozim.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- Stefano Gatti. Introduction to the Theory and Practice of Project Finance. // Project Finance in Theory and Practice (Fourth Edition), Designing, Structuring, and Financing Private and Public Projects, 2024. - Pages 1-35. <https://www.sciencedirect.com/science/article/abs/pii/B9780323983600000019>



2. Manel Kammoun, Gabriel J. Power, Djerry C. Tandja. Capital market reactions to project finance loans. // Finance Research Letters, Volume 45, March 2022. <https://www.sciencedirect.com/science/article/abs/pii/S1544612321001963>
3. Afshin Firouzi, Ali Meshkani. Risk-based optimization of the debt service schedule in renewable energy project finance. // Utilities Policy, Volume 70, June 2021. <https://www.sciencedirect.com/science/article/abs/pii/S095717872100031X>
4. Jose Barroco, Maria Herrera. Clearing barriers to project finance for renewable energy in developing countries: A Philippines case study. // Energy Policy, Volume 135, December 2019
5. Robert F. Bruner. Project Financing: an Economic Overview. // Article in SSRN Electronic Journal, October 2008.
6. A.Garcia-Bernabeu, F. Mayor-Vitoria, F. Mas-Verdu. Project Finance Recent Applications and Future Trends: The State of the Art. // International Journal of Business and Economics, Vol. 14, No. –2, 2015. –159-178 pp.
7. B.Mamatov, D.Xujamkulov, O.Nurbekov. Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish. // Darslik. –T.: Iqtisod-Moliya, –2014. –449-b.
8. Rashidov O.Yu, Qurbonov X.A., Karlibaeva. R.X. Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish. // O'quv qo'llanma. –T.: O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, –2005. – 33-b.
9. <https://www.ecosys.net/knowledge/project-finance/> – EcoSys xalqaro loyihaviy kompaniya rasmiy veb-sayti ma'lumtlari
10. A Guide to Project Finance // Dentons, 2013. – 18 p. <https://www.dentons.com/~/media/6a199894417f4877adea73a-76caac1a5.ashx>

# Yashil

IQTISODIYOT  
va  
TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2024. № 1

© Materiallar ko'chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

E-mail: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №5666955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



## Jurnalning ilmiyligi:

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oly ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oly attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.